



HARBIY FAOLIYATDA PSIXOLOGIK KOMPETENTLIK ROLINING O'RGANILISHI

**Alimardonov Zohid
Shukurillaevich**

**O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik
ta'minlash kafedrası boshlig'i, p.f.f.d.(PhD), dotsent**

Darhaqiqat, bo'lajak ofitserning bo'ysunuvchi sifatida ham bo'lajak komandir (boshliq) sifatida ham muloqot jarayoni keng ko'lamlı ko'rinishga ega bo'lib, ular: rasmiy va norasmiy, maxfiy va ochiq, bevosita va bilvosita, shaxslararo va ommaviy, ish yuzasidan va shaxsiy va boshqalar. Bundan tashqari, uning faoliyati juda aniq o'ziga xos me'yorlar bilan belgilangan bo'lib, bu o'ziga xoslik uning kasbiy muloqotining xarakterli xususiyatlarida muhim o'rin egallaydi. Shu nuqtayi nazardan olganda, jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari bo'lajak ofitserlarida muloqotchanlikni rivojlantirishda kommunikativ qobiliyatlar ahamiyatli hisoblanadi. Bunga ko'ra, kommunikativ qobiliyat – bu vaziyatga moslashish va verbal va noverbal muloqot vositalaridan foydalanish erkinligini ta'minlaydigan ajralmas shaxs xususiyati bo'lib, boshqa insonning ruhiy holatini va shaxsiy qiyofasini adekvat aks ettirish hamda xatti-harakatlarini mos ravishda baholash, ular asosida idrok etilgan shaxs xulq-atvor xususiyatlarini bashorat qilish mahoratidir.

Ko'pgina olimlar muloqot doirasida asosan komandir (boshliq) va bo'ysunuvchi o'rtasidagi munosabatlar muammosiga doir ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lib, bu masala hozirgi kun harbiy tizimi uchun muhim ekanligini ko'rsatib o'tadilar. Xususan, V.P.Tonkix va Yu.G.Fokinlar tomonidan quyidagi yondashuv ilgari suriladi: "boshliqning har qanday buyrug'i, garchi ularda "buyruq qilaman" so'zi bo'lmasa ham, buyruq deb hisoblanishi kerak. Ba'zi hollarda, kichik mas'uliyatga umid qilib, rahbar bu so'zni neytralroq so'z bilan almashtirishi mumkin" [7] deya ta'kidlaydi. Bu esa, komandir (boshliq)ning har bir topshirig'ini to'liq va sifatli bajarilishini, komandir (boshliq) va bo'ysunuvchi o'rtasidagi munosabatlar o'zaro mustahkamlanishini hamda nizolarsiz o'zaro munosabatlarning yuksak darajaga olib kelinishiga yordam beradi.

Shu o'rinda jahon olimlari tomonidan muammo doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlarning tahlillariga ko'ra, harbiy xizmatchilarda muloqot, muomala, kasbiy muloqot, kommunikativ kompetentlik masalalari o'ziga xos yondashuv asosida ochib berilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, N.V.Potlachuk [4] tomonidan jinoyat-qidiruv xodimlarining kommunikativ kompetentligi masalasi o'rganilib, unda soha vakillarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mazkur tushunchaga o'ziga xos ta'rif ilgari suriladi. Xususan, jinoiy-qidiruv xodimlarining kommunikativ kompetentligi - bu jinoyat qidiruv xodimlari kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va shaxsiy sifatleri bilan belgilanadigan, o'zaro munosabatlar sharoitida namoyon bo'ladigan,

kasbiy muammolarni hal qilishga qaratilgan kasbiy muloqot samaradorligini ta'minlaydigan bilim, ko'nikma, malaka va kommunikativ kompetentligining majmuasidir.

O'zining tadqiqot ishida N.V.Potlachuk ilk marotaba jinoyat-qidiruv xodimlarining kommunikativ kompetentligining mohiyati va xususiyatlarini aniqlab qolmay, balki mazkur toifadagi insonlarning faoliyat jarayonini tahlil qilish orqali ular faoliyatini amalga oshirishga xizmat qiladigan shaxsiy sifatlar va kommunikativ fazilatlarining o'zaro munosabatlari empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Dissertant tomonidan to'plangan empirik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, maxsus ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik trening dasturi jinoyat-qidiruv xodimlarini kasbiy psixologik tayyorgarlik tizimidagi nazariy va amaliy mashg'ulotlariga tadbiq etish natijasida ularda kasbiy faoliyat va shaxs xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro munosabat xususiyatlari ochib berilgan.

O.P.Kondaurova [3] ning jamoat xavfsizligini ta'minlash xodimlarining fuqarolar bilan kasbiy muloqotini oshirish bo'yicha psixologik treninglar yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqot ishida xodimlarning kasbiy muloqotini psixologik treninglar vositasi yordamida rivojlantirishning imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot doirasida jamoat xavfsizligini ta'minlash xodimlarining kasbiy kommunikativ kompetentligini ularning kasbiy salohiyatini belgilab berishi ko'rsatib o'tilgan. A.I.Yemelin [2] ning moliya sohasidagi bo'lajak ofitserlarida kommunikativ kompetentlikni ijtimoiy-psixologik trening vositasi orqali shakllantirishga qaratilgan tadqiqot ishi doirasida muloqot va kommunikativ kompetentlik tushunchasining o'rtasidagi o'zaro munosabat xususiyatlari, kommunikativ kompetentlikning tarkibiy qismlari, harbiy moliyachi shaxsida kommunikativ kompetentlik xizmat vazifalarini bajarishdagi muhim tarkibiy qism ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, olim dissertatsion tadqiqot ishi doirasida moliya sohasidagi bo'lajak ofitserlarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik trening dasturi ishlab chiqib, o'ziga xos yondashuvlarni ilgari surgan.

Ma'lumki, bo'lajak ofitserning kommunikativ faoliyatini har bir elementar harakati o'zaro bog'liq kommunikativ harakatlar zanjiridan iborat [1] hisoblanadi. Jumladan:

- subyektning kommunikativ vaziyatga kirishishi;
- subyekt kommunikativ vaziyatning tabiatini baholashi (qulay, noqulay va boshqalar);
- kommunikativ vaziyatga yo'naltirish;
- mumkin bo'lgan o'zaro ta'sir uchun umumiy mavzuni tanlash;
- o'zaro ta'sir subyektiga nisbatan yondashuv;
- o'zaro hamkorlik qilish uchun suhbatdosh bilan muloqot doirasi;
- tashabbuskor subyekt tomonidan suhbatdoshning e'tiborini jalb qilish;
- tashabbuskor subyekt tomonidan suhbatdoshning emosional-psixologik holatiga moslashish;
- muloqot subyektlarining emosional-psixologik holatini moslashtirish, umumiy hissiy fonini shakllantirish;
- tashabbuskor subyektning suhbatdoshiga kommunikativ ta'siri;

- tashabbuskor subyekt tomonidan suhbatdoshning ta'sirga bo'lgan munosabatini baholash;

- suhbatdoshning "javob harakati" ni rag'batlantirish;
- muloqot jarayonida suhbatdoshning "javob harakati".

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, bo'lajak ofitserlar o'rtasidagi o'zaro muloqotning muvaffaqiyatsizligi ko'pincha ularning bir-birini tushunmaslik, boshqalarni eshita olmaslik, fikrlarni to'g'ri ifoda eta olmaslik, nizolarsiz o'zaro munosabatlarni qura olmaslik va boshqalarda ko'rish mumkin. Shu sababli, zamonaviy tadqiqotlarda kommunikatorlarning shaxsiy xususiyatlari, muloqot va kommunikativ maqsadlarga erishish holatlari hamda sharoitlari bilan bir qatorda, kommunikativ muvaffaqiyatsizliklar kabi hodisa ham faol o'rganilmoqda [5]. Olimlarning fikriga ko'ra, harbiy xizmatchilar o'rtasidagi kommunikativ muvaffaqiyatsizliklar ma'lumotlarning past konsentratsiyasi, konseptual murakkablik, nutqni idrok etishga ijobiy kommunikativ munosabatning mavjud emasligi, shuningdek, shaxsning kommunikativ fazilatlari (ehtiyotkorlik, bag'rikenglik, o'zini o'zi boshqarish va boshqalar) bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Горянина, В. А. Психология общения / В. А. Горянина. - М.: ЮНИТИ, 2002. - 416 с.

2. Емелин А. И. Формирование коммуникативной компетентности у будущих офицер-финансистов средствами мисоциально-психологического тренинга Ярославль 1999

3. Кондаурова О. П. Психологический тренинг профессионального общения сотрудников милиции общественной безопасности с гражданами. Москва – 2001

4. Потлячук Н. В. Коммуникативная компетентность сотрудников криминальной милиции - Санкт-Петербург 2008

5. Сахаров С. Ю. Факторы, влияющие на профессиональную адаптацию выпускников высших военных учебных заведений / С. Ю. Сахаров, Д. А. Тонких; под общ. ред. А. В. Туголукова // Перспективы развития науки и образования: сборник научн. трудов по материалам X межд. научно-практич. конф., 31 октября 2016 г. – М.: ИП Туголуков А. В., 2016. – С. 25–27.

7. Тонких В. П., Фокин Ю. Г. Как вы управляете? / В. П. Тонких, Ю. Г. Фокин. – М.: Воениздат, 1984. – 190 с.